

IJTIMOYIY TARMOQLARNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI

Eshmurodova Lobarxon Dilmurod qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti xorijiy til va adabiyoti
birinchi ingliz fakulteti 3 kurs talabasi
lobareshmurodova39@gmail.com

Ilmiy rahbar: Nosirova Mubina Olimovna,

O'zDJTU Umumiy tilshunoslik kafedrasida katta o'qituvchisi
m.nosirova@uzswlu.uz

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada ijtimoiy tarmoqlarning zamonaviy jamiyatdagi o'rni hamda ularning yoshlar ongiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy va salbiy jihatlari, raqamli qaramlik, axborot oqimining psixologik ta'siri hamda media savodxonlikning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, yoshlar orasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va raqamli muhitda xavfsiz foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar, raqamli muhit, media savodxonlik, tanqidiy fikrlash, axborot xavfsizligi, psixologik ta'sir, raqamli qaramlik.

Abstract. This scientific article analyzes the role of social networks in modern society and their impact on the consciousness of young people. The study highlights both the positive and negative aspects of social networks, digital addiction, the psychological effects of information flow, and the importance of media literacy. It also emphasizes the necessity of developing critical thinking among young people and forming safe usage skills in the digital environment.

Keywords: social networks, youth, digital environment, media literacy, critical thinking, information security, psychological impact, digital addiction.

Аннотация. Данная научная статья анализирует роль социальных сетей в современном обществе и их влияние на мышление молодежи. В исследовании освещаются позитивные и негативные аспекты социальных сетей, цифровая зависимость, психологическое воздействие информационного потока и важность медиаграмотности. Также обосновывается необходимость развития критического мышления у молодежи и формирования навыков безопасного использования цифровой среды.

Ключевые слова: социальные сети, молодежь, цифровая среда, медиаграмотность, критическое мышление, информационная безопасность, психологическое воздействие, цифровая зависимость.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda raqamli texnologiyalar jamiyatning barcha sohalariga chuqur kirib bordi. Shu bilan bir qatorda ijtimoiy tarmoqlar kommunikatsiya va axborot almashinuvi jarayonining asosiy vositalaridan biriga aylanib ulgurdi. Ayniqsa, yoshlar ushbu platformalarning eng faol foydalanuvchilari hisoblanadi. Ular o'z hayotlarini raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qila olishmaydi. Sababi har qanday ish, xoh ta'lim, xoh shaxsiy hayot bo'lsinki barcha barchasi ijtimoiy tarmoqlar bilan chambarcha bog'liq. Yoshlarimiz o'zlarining kundalik hayotida axborotni qabul qilish, fikr bildirish va ijtimoiy aloqalarni amalga oshirishda ijtimoiy tarmoqlarga tobora ko'proq tayanib borayotgani hech birimizga sir emas. Bu

jarayon esa o'z o'rnida yoshlarning kognitiv rivojlanishi, dunyoqarashi va ijtimoiy xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

Haqiqatdan ham ko'plab foydalanuvchilarga ega bulgan bu tarmoqlarning afzalliklari ham talaygina ekanligini tan olmaslikning ilojisi yo'q. Ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy tomonlariga to'xtaladigan bo'lsak, ularning asosiy ustunligi bu tezkor axborot olish imkoniyatidir. Yoshlar istalgan yangilikni juda tez bilib olishi mumkin. Bu esa ularning dunyoqarashini kengaytiradi va jamiyatda bo'layotgan voqealardan xabardor bo'lishga yordam beradi. Bundan tashqari, internet orqali uzatilyotgan juda ko'p foydali videolar, kurslar va o'quv materiallari yoshlarga mustaqil ravishda bilim egallash kabi bir qancha imkoniyatlarni yaratmoqda. Ayniqsa, yoshlarimizning chet tillarini mukammal o'rganib yuqori darajadagi til bilish sertifikatlarini qo'lga kirityotgani, IT sohalari va boshqa jabhalarda yuqori natijalar ko'rsatyotgani yaqol misoldir .

Qolaversa, ijtimoiy tarmoqlar orqali har qancha masofa ham o'z ahamiyatini yuqotadi. Chunki dunyoning istalgan joyidan turib boshqa qit'a, materikda yashayotgan do'stlar yoki qarindoshlar bilan tez va oson aloqa qilish mumkin. Natijada, insonlar o'rtasidagi aloqa mustahkamlanib, o'zaro ijtimoiy bog'liqlik oshishiga zamin yaratadi.

Malumot uchun, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning ijodkorligini ham rivojlantiradi. Ular video, rasm yoki turli kontentlar yaratib, o'z fikrlarini boshqalar bilan bo'lishadi. Bunday harakatlar esa insonning o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi va yangi imkoniyatlar yaratadi. Yoshlar turli yangiliklar, ilmiy-ma'rifiy kontentlar hamda ta'limiy resurslardan oson foydalanish orqali o'z bilim darajasini oshirish qobiliyatiga ham ega bo'lishadi. Shuningdek, raqamli platformalar kommunikativ kompetensiyani rivojlantirib, global miqyosda fikr almashish va hamkorlik qilish imkonini yaratadi. Bu esa yoshlarning ijtimoiy faolligi va kreativ salohiyatini kuchaytiradi.

Ammo tanganing ikkinchi tomoni bp'lgani kabi, ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanishning ham o'ziga yarasha salbiy oqibatlar mavjud. Eng achinarlisi esa vaqtni noto'g'ri ishlatishdir. Ko'p yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda uzoq vaqt qolib ketishi ularning o'qishiga, rivojlanishiga, o'z ustida ishlashga xalaqit beradi. Bundan tashqari, telefon va internetdan ko'p foydalanish sog'liq uchun ham juda zarar. Ko'z charchashi, bosh og'rishi va diqqatning pasayishi kabi muammolar paydo bo'lishi mumkin.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning nafaqat yoshlar, balki barcha foydalanuvchilar psixologiyasiga salbiy ta'siri mavjud. Foydalanuvchilar ko'pincha idealizatsiyalashgan hayot tarzini kuzatish orqali o'z hayotini boshqalar bilan solishtiradi. Bu holat esa o'z-o'zini baholashning pasayishi, stress va emotsional beqarorlik kabi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, raqamli muhitda psixologik barqarorlikni saqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Yana bir noafzallik tomoni borki, bu asosan ijtimoiy tarmoq kuzatuvchilari orasida ko'p uchrab turadi, ya'ni raqamli qaramlik (digital addiction) bo'lib, bu holat yoshlarning real hayotdagi faoliyatini kamaytiradi. Uzluksiz axborot oqimi esa diqqatni jamlash qobiliyatining pasayishiga, kognitiv charchoq va psixologik zo'riqishga olib kelishi mumkin. Yana bir salbiy jihati shundaki ijtimoiy tarmoqlardagi har qanday xabar yoki kontentlarni biz to'g'ri deb e'tirof etolmaymiz. Sababi internet muhitida tarqatilayotgan barcha axborotlar ham ishonchli emasligi sababli, yoshlar dezinformatsiya va manipulyativ kontent ta'siriga tushib qolishi ehtimoldan holi emas.

Shu sababli, yoshlar orasida media savodxonlik (media literacy) va axborot savodxonligini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Axborotni tahlil

qilish, ishonchli manbalarni ajratish hamda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish yoshlarni raqamli xavflardan himoya qiladi. Qolaversa, vaqtni samarali boshqarish va ijtimoiy tarmoqlardan me'yorida foydalanish ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy yoshlar hayotida muhim rol o'ynaydi va ular foydalanuvchilar, ayniqsa, yoshlar ongiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ta'sir ham ijobiy, ham salbiy ko'rinishda namoyon bo'ladi. Shuning uchun raqamli muhitdan oqilona foydalanish, axborot savodxonligini oshirish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bugungi kunning asosiy talablaridan biriga aylanib bormoqda.

References:

1. Boyd, D. (2014). *It's complicated: The social lives of networked teens*. Yale University Press.
2. Carr, N. (2010). *The shallows: What the Internet is doing to our brains*. W. W. Norton & Company
3. Livingstone, S. (2008). Internet literacy: Young people's negotiation of new online opportunities. *Communication Research*, 35(3), 393-411.
4. Twenge, J.M. (2019). *iGen: Why today's super-connected kids are growing up less rebellious, more tolerant, less happy*. Atria Books.